Ushbu maqola agroklasterlarda ichki sotish jarayonida transfert bahoning nazariy asoslari, transfert bahoni belgilash usullari atroflicha o'rganilib, uni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Transfert baho, agroklasterlarning ichki sotish jarayoni, javobgarlik markazlari, transfert baho belgilash usullari.

Abstract: In an agrocluster, transfer pricing is needed when accounting for costs for responsibility centers, valuing services provided by them from another responsibility center, raw materials or products provided, and when valuing services provided by them to another responsibility center, raw materials or products provided. The determination of transfer pricing depends on the form of organization of production at the enterprise, which is organized in a decentralized manner in agroclusters, where responsibility centers are subordinate to the management of the agrocluster, but are independent from the point of view of production. Transfer pricing within an agrocluster should be established in such a way as to allow for accurate and reliable determination of the costs, income and profits of each responsibility center. Transfer pricing is of great importance not only for determining the results of responsibility centers, but also for making management decisions on questions such as “how to produce and purchase”, “sell and further process” and for assessing the activities of responsibility centers. This article comprehensively studies the theoretical foundations of transfer pricing in the process of internal sales in agroclusters, methods for determining transfer pricing, and develops proposals for its improvement.

Key words: Transfer pricing, internal sales process of agroclusters, responsibility centers, transfer pricing methods.

Аннотация: В агрокластере трансфертное ценообразование необходимо при учете затрат по центрам ответственности, оценке услуг, оказываемых ими из другого центра ответственности, предоставленного сырья или продукции, а также оценке услуг, оказываемых ими другому центру ответственности, предоставленного сырья или продукции. Трансфертное ценообразование зависит от формы организации производства на предприятии, которая в агрокластерах организована децентрализованно, где центры ответственности подчинены руководству агрокластера, но являются самостоятельными с точки зрения производства. Трансфертное ценообразование внутри агрокластера должно быть установлено таким образом, чтобы обеспечить точное и надежное определение затрат, доходов и прибыли каждого центра ответственности. Трансфертное ценообразование имеет большое значение не только для определения результатов деятельности центров ответственности, но и для принятия управленческих решений по таким вопросам, как «как производить и закупать», «как продавать и далее перерабатывать», а также для оценки эффективности деятельности центров ответственности. В данной статье комплексно исследуются теоретические основы трансфертного ценообразования в процессе внутренних продаж в агрокластерах, методы определения трансфертного ценообразования, а также разрабатываются предложения по его совершенствованию.

Ключевые слова: Трансфертное ценообразование, внутренний процесс продаж агрокластеров, центры ответственности, методы трансфертного ценообразования.



KIRISH

Bugungi kunda agroklastarlarda yuz beradigan xo'jalik operatsiyalarining asosiy qismi ishlab chiqarish bo'linmalariga to'g'ri keladi. Har bir ishlab chiqarish bo'linmasi ma'lum jarayonlarni amalga oshiradi va boshqa bo'linmalar bilan iqtisodiy munosabatda bo'ladi. Ushbu iqtisodiy munosabatlar bir bo'linma mahsulotini ikkinchi bo'linma tomonidan xomashyo sifatida foydalanishi yoki xizmat va ish bajaradigan bo'linmalar tomonidan bajarilgan ish va xizmat ko'rsatishi natijasida yuzaga keladi. Ushbu bo'linmalar yuridik jihatdan mustaqil bo'lmasada, yuritadigan faoliyatlari bo'yicha nisbatan mustaqil hisoblanadi. Natijada, har bir bo'linma faoliyati natijalarini korxona tomonidan baholashda asosiy masala bo'linmalarining xarajatlari va daromadlari hisoblanadi. Bo'linmalar daromadini aniqlash uchun ular faoliyatining natijasi bo'lgan mahsulot (ish, xizmat)lari uchun ichki baho belgilash lozim bo'ladi. Bu ichki baho korxona tomonidan belgilanib, hozirgi kunda buxgalteriya hisobida transfert baho hisoblanadi.

Tahlillar, agroklastarlarda transfert baholarni tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan holda belgilash, transfert baholar asosida bo'linmalar daromadini aniqlash va bo'linmalar faoliyatini baholash tartibi bo'yicha tashkiliy-uslubiy jihatlarini takomillashtirish muammolari mavjudligini ko'rsatmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Transfert baho makroiqtisodiyotning turli tarmoqlarida va soliqqa tortish sohasida qo'llanilib kelinmoqda. Transfert bahoni belgilashning turli usullari bo'lib, ular bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, uning natijasi ilmiy adabiyotlarda atroflicha yoritilgan. "Transfert bahosi – bu aloqador tomonlar o'rtasidagi operatsiyalarda narxlash (baholash). Transfert baholar, odatda, bir guruh kompaniyalar (turdosh shaxslar guruhi) umumiy foydasini soliq solish qulayroq yurisdiksiyalarda joylashgan kompaniyalar foydasiga qayta taqsimlanishining oldini olish uchun fiskal organlar tomonidan nazorat qilinadi" [12]. Amaldagi Soliq kodeksining VI. "Transfert narxni belgilashda soliq nazorati" bo'limida transfert baho to'g'risida ma'lumot berilib, bunda transfert baholarni belgilashda narxlar va soliq solish to'g'risidagi umumiy qoidalar, transfert bahoni belgilashda soliq nazoratida foydalaniladigan usullar qayd etilgan. Jumladan, 186-modda "Transfert bahoni belgilash chog'ida soliq nazorati o'tkazilganida (shu jumladan nazorat qilinadigan bitimning tijorat va (yoki) moliyaviy shartlari hamda uning natijalari taqqoslanadigan bitimlarning tijorat va (yoki) moliyaviy shartlari hamda ularning natijalari bilan taqqoslanganda) O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi ushbu moddada belgilangan tartibda quyidagi usullardan foydalanadi: taqqoslanadigan bozor baholarining usulidan; keyingi realizatsiya qilish narxi usulidan; xarajat usulidan; taqqoslanadigan rentabellik usulidan; foydani taqsimlash usulidan" deb belgilab qo'yilgan, ya'ni transfert bahoni belgilashning besh usuli haqida qayd etib o'tilgan. Rossiya Federatsiyasining Soliq kodeksida transfert baho belgilashning besh usuli ko'rsatib o'tilgan: taqqoslama bozor bahosi usuli; keyingi sotish bahosi usuli; xarajat usuli; rentabellikni solishtirish usuli; foydani taqsimlash usuli. Ushbu ro'yxat to'liqdir, ammo agar yuqoridagi usullar bir martalik xarakterga ega bo'lgan bitimda bozor bahosi darajasini aniqlashga imkon bermasa, bozor qiymatini aniqlash uchun mustaqil baholashda tashkilotning hisobotidan foydalanish mumkin" [5]. Kanadalik professor Entoni Atkinson [2] korxonalar ichidagi javobgarlik markazlarining bir-biri bilan bo'ladigan iqtisodiy munosabatlarida qo'llanilishini ta'kidlab, unga quyidagicha ta'rif bergan: "Transfert baho – bu javobgarlik markazlari o'rtasida o'tkaziladigan mahsulotlar (tovarlar, xizmatlar) narxlarini aniqlashda korxonalar foydalanishi mumkin bo'lgan mexanizmlar va usullar to'plamidir."

Shuningdek, transfert bahoning quyidagi usullarini qayd etadi: Bozor bahosi asosida; Xarajat asosida; Shartnoma asosida; Tartibga solinadigan asosda, tomonlar kelishuviga ko'ra. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining transfert baholar bo'yicha tavsiyalari amaldagi usullarni ikkita guruhga ajratadi: Tranzaksiya tahliliga asoslangan usullar: taqqoslanadigan nazoratsiz baholar usuli; keyingi sotish bahosi usuli; "xarajatlar plyus" usuli. Foyda tahliliga asoslangan usullar: foydani taqsimlash usuli (transactional net margin method); sof foyda usuli (transactional profit split method) [6]. Tadqiqotimiz agroklastarlarning ichki sotish jarayoni, ya'ni bir tarkibiy bo'linmadan ikkinchi tarkibiy bo'linmaga mahsulot, ish va xizmatlar o'tkazilganda qo'llaniladigan ichki baho (transfert baho) bo'lganligi uchun, bunda quyidagi mualliflar fikrlarini ham keltirib o'tamiz. Professor M.Z. Pizengols transfert baholar faqat boshqaruv hisobida qo'llanilishini qayd etib o'tgan. "Agar moliyaviy buxgalteriya hisobida materiallarni sotib olish va mahsulotlarni sotish uchun real narxlar qo'llanilsa, boshqaruv hisobida "transfert baholari" keng qo'llaniladi, ya'ni tashkilotning ichki tarkibiy bo'linmalari o'rtasidagi mahsulot, ishlar va xizmatlarni bir-biriga o'tkazishda hisob-kitoblarda qo'llaniladigan shartli baholar" [8]. Shuningdek, transfert bahoni korxona ichidagi tarkibiy bo'linmalar o'rtasidagi hisob-kitoblarda qo'llaniladigan baho ekanligini V.Ye. Kerimov ta'kidlab o'tgan bo'lib, unga quyidagicha ta'rif bergan: "Transfert baho bir korxona ichida bir javobgarlik markazidan boshqa javobgarlik markaziga beriladigan mahsulot (materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, tayyor mahsulotlar) yoki xizmatlar bahosini aniqlash uchun faqat korxona ichida foydalaniladigan bahodir" [3]. Umuman olganda, boshqaruv buxgalteriya hisobi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan O'zbekistonlik



iqtisodchi olimlar ham transfert baho bo'yicha tadqiqotlarida shunga o'xshash fikrlarni bildirishgan. Professorlar B.A. Xasanov va A.A. Xashimovlar fikricha: "Transfert baho – korxona ichida bir javobgarlik markazidan boshqa javobgarlik markaziga o'tkaziladigan mahsulot (materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, tayyor mahsulotlar) yoki xizmatlar bahosini aniqlash uchun foydalaniladigan bahodir" [9]. Professor A.X. Pardayev va Z.A. Pardayevalar ham shunga yaqin bo'lgan fikrni bildirishgan: "Transfert baho – xo'jalik yurituvchi subyektning ichki o'tkazish bahosi. Xo'jalik yurituvchi subyekt bo'linmalari va segmentlari o'rtasida buyumlar va xizmatlar uzatiladigan baho. Bozor miqyosida o'rnatilishi, tannarxga asoslanishi yoki kelishilgan bo'lishi mumkin" [7]. Transfert bahoni belgilashda xalqaro amaliyotda ham, milliy amaliyotda ham bir qancha usullari mavjud bo'lib, ulardan asosan to'rt usuldan ko'proq foydalanilishi iqtisodchi olimlar A.X. Pardayev va Z.A. Pardayevalar [7] tomonidan qayd etib o'tilgan: O'zgaruvchan xarajatlar usuli; Yalpi foyda usuli; Sotish rentabelligi usuli; Aktivlar rentabelligi usuli. Transfert baho bo'yicha ilmiy-uslubiy manbalarni tahlili, transfert baholashning soliq solish nuqtai nazaridan hamda bir korxona tarkibiy bo'linmalari o'rtasida o'zaro bo'ladigan hisob-kitoblarda qo'llaniladigan transfert baholardan farqlanishini ko'rsatmoqda. TAHLIL VA NATIJALAR.

Agroklastarlarda so'ngi yillarda tarkibiy bo'linmalari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, ular faoliyatini baholash va boshqa ko'rilyotgan tadbirlar natijasida faoliyati yakunida oladigan foydasi ko'payib, iqtisodiy jihatdan barqarorlikka erishmoqdalar (1-jadval).

1-jadval. "AFRASIAB JEANS TEXTILE" MChJning "Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot"i ma'lumotlari [11] mln. so'm.

Ko'rsatkichlar nomi	2023 yil		2024 yil	
	Daromadlar (foyda)	Xarajatlar (zarar)	Daromadlar (foyda)	Xarajatlar (zarar)
Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan sof tushum	289 901,4	x	563 677,9	x
Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat) larning tannarxi	x	257 513,6	x	428 427,2
Mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishning yalpi foydasi (zarari)	32 387,8		135 250,7	
Davr xarajatlari, jami, shu jumladan:	x	16 373,2	x	14 050,1
Sotish xarajatlari	x	2 152,0	x	1 021,1
Ma'muriy xarajatlar	x	1 796,2	x	511,4
Boshqa operatsion xarajatlar	x	12 425,0	x	12,5
Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari	100,3	x	1,0	x
Asosiy faoliyatning foydasi (zarari)	16 114,9		121 201,1	
Moliyaviy faoliyat daromadlari, jami, shu jumladan:	4 468,1	x	10 116,6	x
Valyuta kursi farqidan daromadlar	4 468,1	x	10 035,8	x
Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari		x	80,8	x
Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar, shu jumladan:	x	26 051,1	x	85 249,1
Foizlar shaklidagi xarajatlar		14 421,9		70 565,6
Valyuta kursi farqidan zararlar	x	11 629,2	x	14 683,5
Umumxo'jalik faoliyatining foydasi (zarari)		5 468,1	46 068,5	
Foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar)		5 468,1	46 068,5	
Foyda solig'i	x		x	2 434,5
Hisobot davrining sof foydasi (zarari)		5 468,1	43 634,0	

Yuqoridagi 1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, agroklastar 2023-yilda 5468,1 million so'm zarar ko'rgan bo'lsa, 2024-yilda mahsulot tannarxini pasaytirish, sifatini yaxshilash, tarkibiy bo'linmalar o'rtasidagi munosabatda hisob-kitoblarni to'g'ri yo'lga qo'yilishi va boshqa omillar hisobiga yilni 43 634,0 million so'm foyda bilan yakunlagan.

Hozirgi kunda ishlab chiqarayotgan mahsulotlari turlariga qarab, paxta-to'qimachilik, g'allachilik, meva-sabzavotchilik, baliqchilik, pillachilik va boshqa turdagi agroklastarlar faoliyat yuritmoqda. Agroklastarlarda yetishtirilayotgan mahsulot turlari va ularni tayyor mahsulot sifatida iste'molchilarga yetkazish xususiyatlariga qarab bir nechta tarkibiy bo'linmalardan tashkil topib, buxgalteriya hisobida bular javobgarlik markazlari hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm. Agroklasterlarning javobgarlik markazlari¹

Agroklasterlarning tarkibiy tuzilishidan ko'rinib turibdiki, ular bir nechta tarkibiy bo'linmalar (javobgarlik markazlari)dan tashkil topgan bo'lib, agroklasterning faoliyati ana shu tarkibiy bo'linmalar faoliyati bilan bog'liq. Ushbu tarkibiy bo'linmalar boshqaruv hisobida javobgarlik markazlari bo'lib, ular xarajatlari va daromadlarini alohida yuritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu javobgarlik markazlari faoliyatini tahlil qilish, nazorat qilish va baholash imkonini beradi, natijada qabul qilinadigan boshqaruv qarorlari ta'sirchanligi va samaradorligi oshadi. Agroklasterlarda transfert bahoni belgilash quyidagi asosiy talablarga javob bermog'i kerak: agroklasterning pirovard maqsadiga erishishini va javobgarlik markazlari maqsadlarini agroklasterning umumiy maqsadlari bilan uyg'un bo'lishini ta'minlash; boshqaruvning turli darajalarida menejerlar uchun moslashuvchan va bir xilda bo'lishi kerak. Transfert baho javobgarlik markazi-sotuvchining mahsulot va xizmatlarini xarid qilgan javobgarlik markazi-xaridor faoliyati samaradorligiga salbiy ta'sir qilmasligi lozim; sotuvchi va xaridor javobgarlik markazlari faoliyati bo'yicha mustaqilligiga salbiy ta'sir qilmasligi kerak; ichki va tashqi bozorlarning o'zgaruvchan sharoitlarini tez ilg'ab olish, foydani samarali sohalariga yo'naltirish imkonini berish; amaldagi qonunlar talablari asosida shakllantirilishi va ularga mos kelishi lozim. Agroklasterlar ichidagi javobgarlik markazlarining o'zaro iqtisodiy munosabatlarida (biri mahsulotini xomashyo sifatida ikkinchisiga o'tkazganda) transfert baholarni belgilashning bir qancha usullari mavjud bo'lib, ushbu usullardan maqbulini aniqlab olish va qo'llash muhim o'rin tutishi dolzarb hisoblanadi. Bu haqda professorlar B.A. Xasanov va A.A. Xoshimovlar ham o'z fikrlarini quyidagicha ifodalashgan: "Korxona ichki bo'linmalari o'rtasida transfert baholarni shakllantirishda uni belgilash usullariga alohida e'tibor qaratish zarur. Transfert baholarni belgilashning quyidagi usullari mavjud: bozor bahosi; to'liq tannarx plyus foyda (to'liq tannarxdan %); o'zgaruvchan xarajatlar plyus foyda (o'zgaruvchan xarajatlardan %); tomonlarning o'zaro kelishuvi asosidagi shartnomaviy baho; to'liq yoki qisqartirilgan tannarx." Korxona boshqaruvchilari, bo'linma-sotuvchilar va bo'linma-xaridorlarning talablariga birdek javob beradigan yagona transfert baho mavjud emas. Amaliyotda korxonalarining bir qismi shartnomaviy bozor bahosidan transfert baho sifatida foydalanadi, boshqa bir qismi esa "to'liq tannarx plyus foyda" usulidan foydalanishni afzal ko'radi" [10]. Transfert baholarni belgilashning bir qancha usullari mavjud bo'lsa-da, amaliyotda ularning qo'llanilishi iqtisodiyot tarmoqlaridagi korxonalarining xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Sanoat korxonalari amaliyotida "shartnomaviy bozor bahosi"dan transfert baho sifatida foydalaniladi, boshqa tarmoqlarning korxonalarida esa "to'liq tannarx plyus foyda" usulidan ko'proq foydalaniladi. Olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasida, agroklasterlarda bir qancha javobgarlik markazlari bo'lib, ularda transfert baholarni shakllantirish usullari ("bozor bahosi", "tomonlarning o'zaro kelishuvi asosidagi shartnomaviy baho", "tannarx plyus foyda") qo'llanilishi o'rganildi (2-jadval). Agroklasterlarda transfert bahoni shakllantirishning "bozor bahosi" usulini qo'llash ancha qulay bo'lib, bunda transfert baho bozorda shakllangan bahoga tenglashtirib olinadi. Ushbu usulning kamchiligi shundan iboratki, bozor bahosi talab va taklifdan kelib chiqib shakllanganligi tufayli, mavsumiy xarakter ta'sirida tez o'zgaruvchan bo'ladi. Transfert baho "tannarx plyus foyda" usuli asosan javobgarlik markazlari xarajatlar uchun javobgar bo'lganda qo'llaniladi. Biroq bu usul mablag'larni tejash imkoniyatini pasaytiradi, ya'ni haqiqiy tannarx qancha yuqori bo'lsa, sotuvchi javobgarlik markazi sotish bahosini shuncha baland belgilaydi. Shuning uchun ushbu usulda transfert bahoni belgilash vaqtida agroklaster tarkibiga kiruvchi javobgarlik markazlarini foyda yoki investitsiya markazlari sifatida emas, balki xarajatlar markazlari sifatida qarash lozim bo'ladi.

¹ Muallif ishlamasi

2-jadval. G'allachilik agroklastlarida transfert bahoni shakllantirishda qo'llaniladigan usullar²

Javobgarlik markazi (sotuvchi)	Javobgarlik markazi (oluvchi)	Transfert bahoni belgilash usuli
G'alla (don) yetishtiruvchilar	Don saqlash omborlari	Bozor bahosi
Don saqlash omborlari	Qayta ishlash sexi	Tannarx plyus foyda
Qayta ishlash sexi	Tayyor mahsulot ombori	Tannarx plyus foyda
Tayyor mahsulot ombori	Non va non mahsulotlari sexi	Tannarx plyus foyda
Non va non mahsulotlari sexi	Savdo tashkilotlari	
Yordamchi ishlab chiqarish bo'linmasi	G'alla (don) yetishtiruvchilar	Tannarx plyus foyda
	Don saqlash omborlari	
	Qayta ishlash sexi	
	Tayyor mahsulot ombori	
	Non va non mahsulotlari sexi	Tomonlarning o'zaro kelishuvi asosidagi shartnomaviy baho
	Savdo tashkilotlari	
Agroklastlar ta'minotchilari	G'alla (don) yetishtiruvchilar	Bozor bahosi
	Don saqlash omborlari	
	Qayta ishlash sexi	
	Tayyor mahsulot ombori	
	Non va non mahsulotlari sexi	
	Savdo tashkilotlari	

Agroklastlarda transfert baho belgilashning “tomonlarning o'zaro kelishuvi asosidagi shartnomaviy baho” usuli ham qo'llaniladi. Bu asosan qishloq xo'jaligi mahsulot yetishtiruvchilardan mahsulotlar (xomashyo) sotib olinganda qo'llaniladi. Bu usulning afzalligi shundaki, agroklastlar xomashyo sifatida sotib oladigan mahsulotlarning asosiy qismi klaster bilan shartnoma asosida faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaliklarida yetishtiriladi. Ular mahsulotini klasterga erkin shartnomaviy bahoda sotadilar. Shunday qilib, agroklastlarda transfert baho belgilash usullaridan maqbulini aniqlash, ularda ishlab chiqarish bo'linmalari (javobgarlik markazlari)ning o'zaro hisob-kitoblarida qo'llash, har bir javobgarlik markazlari faoliyatini baholash orqali agroklastlarda boshqaruv qarorlari samaradorligini oshirib, barqaror rivojlanishni ta'minlaydi. Agroklastlar o'z faoliyati bo'yicha nisbatan avtonom bo'lgan javobgarlik markazlaridan tashkil topganligi, bu bo'linmalarning o'zaro bog'liqligi, ya'ni birining mahsuloti ikkinchisi uchun xomashyo bo'lishi, ular o'rtasidagi xomashyo va mahsulotlarni bir-biriga yetkazib berishdagi hisob-kitoblarda, xomashyo va mahsulotlarni baholash uchun transfert baholar qo'llaniladi. Transfert baholar agroklastlarda har bir bo'linma (javobgarlik markazlari) xarajatlari va daromadlarini hisobga olish hamda moliyaviy natijalarni aniqlash asosida ular faoliyatini baholash imkonini beradi. Albatta, transfert bahoni aniqlashda qo'llaniladigan usullar agroklastlarda olib borilayotgan baho siyosatiga mos kelishi lozim.

XULOSA

Tadqiqotlar tahlili, agroklastlarda baho siyosati ishlab chiqilmaganligi, javobgarlik markazlari o'zaro iqtisodiy munosabatlarda foydalaniladigan transfert bahoni belgilash usullari aniq belgilab qo'yilmaganligini ko'rsatmoqda. Agroklastlar tarkibida ishlab chiqarish bo'linmalari (javobgarlik markazlari) bir-biri bilan bog'liqligi, birining barqaror faoliyati ikkinchisining faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini hisobga olgan holda, transfert bahoni belgilashda “tannarx plyus foyda” usulini qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Albatta, bunda javobgarlik markazlarini foyda yoki investitsiya markazlari sifatida emas, balki xarajatlar markazlari sifatida qarab, tannarx ustidan nazorat olib borilishi lozim. Agroklastlarda ichki sotish jarayonida transfert baholarni belgilash usullarini takomillashtirish natijasida quyidagilarga erishiladi: agroklastlarda baho siyosatini ishlab chiqish va ichki sotish jarayonida, bir javobgarlik markazidan ikkinchi javobgarlik markaziga mahsulotlar o'tkazilganda yoki ish va xizmatlar ko'rsatilganda transfert bahoni belgilashda qo'llaniladigan usulni aniq belgilab olish zarurati mavjudligi; agroklastlar transfert baho belgilashda “tannarx plyus foyda” usulini qo'llash, bunda javobgarlik markazlarini xarajatlar markazlari sifatida qarab, tannarx ustidan nazorat olib borilishini ta'minlashga imkon berishi; har bir javobgarlik markazlari faoliyatini o'rnatilgan transfert baholardan foydalanib, moliyaviy natijalarini

² Muallif ishlanmasi.



aniqlash orqali baholash tizimi yo'lga qo'yilishi va bu javobgarlik markazlari faoliyatini baholash imkonini yaratishi. Bular respublikamizda xo'jalik yuritishning yangi shakli hisoblangan agroklastarlarda boshqaruv hisobini rivojlantirishga hissa qo'shib, ishlab chiqarish bo'linmalari (javobgarlik markazlari) faoliyatini baholash va nazorat qilish bo'yicha boshqaruv qarorlari samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Soliq kodeksi". <https://lex.uz/asts/4674902>
2. Atkinson E.A., Banker R.D., Kaplan R.S., Yang M.S. Upravlencheskiy uchët. – 3-e izdanie. – M.: Izdatelskiy dom "Vil'yams", 2005. – B. 782–783.
3. Kerimov V.E. Buxgalterskiy uchët na proizvodstvennykh predpriyatiyakh: Uchebnik. – 2-e izd., izm. i dop. – M.: Izdatelskiy dom "Dashkov i K", 2002. – B. 127.
4. Nalogovyy kodeks Rossiyskoy Federatsii (NK RF), st. 105.9–13. https://www.consultant.ru/document/cons_doc
5. OECD. Transfer Pricing Guidelines for Multinational Enterprises and Tax Administrations, 2017. www.oecd.org. Murojaat sanasi: 2021-yil 6-mart. Arxivlangan sana: 2021-yil 8-mart.
6. Pardayev A.X., Pardayeva Z.A. Boshqaruv hisobi. Darslik. – T.: "TAFAKKUR" nashriyoti, 2014. – B. 390.
7. Pizengolts M.Z. Buxgalterskiy uchët v selskom khozyaystve: Uchebnik. – M.: "Finansy i statistika", T.2, 4-e izd., pererab. i dop., 2002. – B. 3–4.
8. Xasanov B., Xashimov A. Boshqaruv hisobi. – T.: Cho'lpon nomidagi NMIU nashriyoti, 2013. – B. 213.
9. Xasanov B.A., Xoshimov A.A. Boshqaruv hisobi: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – T.: "Yangi nashr" nashriyoti, 2011. – B. 222.
10. "AFRASIAB JEANS TEXTILE" MChJ hisobot ma'lumotlari (2023–2024).
11. Vikipediya. Erkin ensiklopediya. <https://ru.wikipedia.org>
12. Alikulov A., Eshmuradov U., Abdushukurov K. (2024). Improving Cost Accounting for Sales of Agricultural Products in Farms. Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot, 2(1).
13. Eshmuradov U.B. (2024). Agroklastlar ichki sotish jarayonida transfert baholarni belgilashning tashkiliy-uslubiy jihatlari. Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot, 2(1).
14. Eshmuradov U.B. (2023). Sotish jarayonlari hisobini buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida takomillashtirish. Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot, 1(11–12).
15. Ulug'bek T.E., Abdimumin I.A. (2014). Improvement Accounting of Sales Agricultural Products on Farm Enterprises. SEA – Practical Application of Science, (5), 649–654.
16. Tashmuratovich E.U.B., Xaitovich Y.S. (2024). G'allachilik klasterlarida transfert baho belgilash usullari tahlili. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 4(01), 133–141.
17. Xudayor o'g'li Q.S., Tashmuratovich E.U.B. (2025). Boshqaruv hisobida "xarajat" atamasining nazariy jihatlari. World of Science, 8(1), 88–90.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. aprel. maxsus son / № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
